

## XALQARO MIGRATSIYA DAVRIDA OILA HUQUQINING ASOSIY MUAMMOLARI

**Turakulov boyburi kuzimuratovich**

Iiv surxondaryo akademik litseyi

huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Kalit so'zlar: oila, oila huquqi, migratsiya, nikoh, FHDYO, transmilliy oila, huquqiy normalar.

Ключевые слова: семья, семейное право, миграция, брак, ЗАГС, транснациональная семья, правовые нормы.

Keywords: family, family law, migration, marriage, marriage registry, transnational family, legal norms.

Migratsiya zamonaviy dunyoning eng ta'sirli va keng ko'lamli fenomenlaridan biri bo'lib, u bugungi kunda butun insoniyat hayotining ijti moi, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy, huqu qiy jabhalariga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Xususan, insonlarning o'z yashash joylarini turli motivlar tufayli o'zgartirishi sababli barcha jamiyatlarda eng oliy qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etiluv chi oila instituti ham transformatsiyaga uchrab bormoqda. Oila a'zolarining turli mamlakatlarda yashashlari, turli davlat fuqarolari o'rtasida oila qurilishi yoki ajrimlar, boshqa mamlakat yurisdik siyasida bo'lgan hududda farzandlarning dunyoga kelishi hamda ularning fuqaroligini belgilash

kabi global migratsiya muammolari oila bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda ham o'z aksini topmoqda. Migratsiya sababli oila huquqida transmilliy oilalarning vujudga kelishi, turli davlatlar fuqarolari orasidagi xalqaro nikohlar, oilaviy migratsiya

va ushbu jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solish kabi muammolar paydo bo'lmoqda.

Bugungi kunda global migratsiya jarayonlari tufayli oila huquqini mehnat huquqi, migratsion huquq, ijtimoiy xavfsizlik va farovonlik huquqi kabi huquq sohalaridan ajralgan holatda o'rganib bo'lmaydi. Qolaversa, oilaviy munosabatlar faqatgina huquqiy normalar bilan emas, balki diniy, milliy mezonlar asosida ham tartibga solinadi. Global migratsiya ko'lami turli dinga e'tiqod qiluvchi, turli millat, elatga mansub bo'lgan insonlar o'rtasida oilalar vujudga kelishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro oila huquqi oldida yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida migratsiya bilan bog'liq bo'lgan ikki yangi tendensiya oilaviy munosabatlarda e'tirof etildi: gender va transmilliylik. Ushbu ikki atamaning sinergiyasidan transmilliy oilalar haqida qarashlar shakllanib, 2000-yillarning boshlaridan transmilliy oilalar madaniy, siyosiy, huquqiy, psixologik tadqiqotlar obyektiga aylana boshladi [1, 43]. Umuman olib qaraganda, transmilliy oilalarning vujudga kelishi globallashuv davriga xos bo'lgan jarayon.

Odatda transmilliy oila deganda, oila a'zolari turli mamlakatlarda doimiy yoki ma'lum muddat oralig'ida yashovchi yoki turli millat va fuqarolikka mansub insonlarning uchinchi mamlakatdagi ijtimoiy birligi, oilasi nazarda tutiladi [2]. Bunday oila a'zolari doimiy ravishda bir-biri bilan aloqada bo'lib, odatda oila boquvchisi yoki boquvchilari moddiy tomondan oilaning ahvolini yaxshilash niyatida mehnat migrantiga aylanadi. Yoki mehnat migranti immigrant mamlakatda oila quradi va transmilliy oila vujudga keladi. Shunday qilib, bunday oilalarning vujudga kelishida migratsiya, xususan, mehnat migratsiyasi katta rol o'ynaydi.

G'arb oila huquqida transmilliy oilalarga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hududiga migrantlarning turli mintaqalardan kirib kelishi oilaviy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan. Ma'lumki, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning fuqarolari Ittifoq tarkibidagi mamlakatlarda erkin

harakatlanish huquqiga ega. Huquq tizimlarining o'xshash ekanligi va oila qonunchiligining yaqin ekanligi Yevropa Ittifoqi doirasida tuzilgan transmilliy oilalarda huquqiy muammolarning kamayishiga olib keladi [1, 114]. Masalan, italiyalik yigit va fransuz qiz o'rtasida quriladigan oila Yevropa Ittifoqining istalgan mamlakatida, masalan, Fransiya, Italiya yoki Germaniyada bir xil rasmiylashtiriladi. Bunday nikoh an'anaviy, mamlakatning ikki fuqarosi o'rtasida tuzilgan nikohdan deyarli farq qilmaydi. Bunga sabablardan biri sifatida bir-biriga geografik jihatdan yaqinlik, milliy an'analar orasidagi o'xshashliklar hamda diniy e'tiqodning yaqinligi (xristianlik dinining turli yo'nalish va mazhablari)ni ham hisoblash mumkin.

Lekin Yevropa Ittifoqiga boshqa geografik mintaqalardan amalga oshiriladigan migratsiyaning natijasida paydo bo'ladigan nikoh munosabatlarida nikohlanuvchilar faqatgina tegishli bir davlatning qonunchiligi asosida oila qurishlari mumkin. Bunda huquqiy normalarda farqdan tashqari, diniy, madaniy, akseologik, axloqiy, estetik tafovut ham katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Transmilliy oilalar, xorijiy mamlakat fuqarolari bilan tuziladigan nikohlar MDH mamlakatlarida ham ko'p kuzatiladigan tendensiya. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Moskva shahridagi FHDY organlarida 2020-yilda 8,5 mingta xorijiy fuqarolar ishtirokida nikoh tuzilgan. Bunday nikohlar Tojikiston, Ukraina, Ozarbayjon, Nigeriya, Turkiya, Vyetnam, Buyuk Britaniya, Afg'oniston va boshqa mamlakatlar fuqarolari bilan tuzilgan [3]. Bunday keng va turfa xil geografiyadan anglashimiz mumkinki, bu davlat fuqarolari yashagan muhit, oilaviy munosabatlarning huquqiy, diniy, axloqiy xususiyatlari ham turli-tuman. Rossiya Federatsiyasida migrantlarga nisbatan oila siyosati, chet el fuqarolarining oila qurishlarida mamlakat fuqarolari bilan bir xil huquqlarni ta'minlovchi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlar olish uchun keng imkoniyatlarni o'z ichiga olgan xalqaro, federal va mahalliy normativ-hujjatlar tizimi shakllantirilgan [4].

O'zbekiston Respublikasida oila qonunchiligida ham xalqaro oilaviy munosabatlarni tartibga solish masalasiga e'tibor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston

Respublikasi Oila Kodeksining 234-238-moddalarni qamrab olgan VIII bo‘limi “Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish” deb nomlangan bo‘lib [5], ushbu bobda mamlakatimizda doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar oilaviy munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanishi hamda teng majburiyatlarga ega ekanligi qayd etib o‘tilgan. Umuman olib qaraganda, oilaviy huquqiy munosabatlarning alohida institutlari bo‘lgan nikoh tuzish, ajrim, farzandlikka olish kabilar migratsiya tufayli turli davlat fuqarolari o‘rtasida yoki boshqa mamlakat yurisdiksiyasida sodir bo‘lganida ham odatiy oilaviy-huquqiy munosabatlardan unchalik ko‘p farq qilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda ham MDH mamlakatlari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning va O‘zbekiston Respublikasi xorijda yashovchi fuqarolarining nikohini qayd etishda alohida tartib qayd etilgan [6]. Ushbu tartibga ko‘ra, O‘zbekiston hududida bo‘lgan hamda nikohni rasmiylashtirishni istayotgan chet el fuqarolari(mantiqiy jihatdan olib qaraganda, immigrantlar) mamlakatimiz qonunchiligida belgilangan tartibda nikohlarini rasmiylashtirishlari mumkin. Chet elda doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining nikohini qayd etish esa o‘sha davlat qonunchiligiga asosan uning vakolatli organlari tomonidan yoki O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarida amalga oshirishi belgilangan.

Bundan anglashimiz mumkinki, mamlakatimizda migratsiya tufayli vujudga kelayotgan oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari yaratilgan. Lekin migratsiya tufayli amaliyotda sodir bo‘layotgan nikoh, er va xotin huquqlari, qon-qarindoshchilik, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, aliment, farzandlikka olish, patronat kabi oila huquqi institutlarining xususiy holatlarini tartibga solishda ba’zi muammolar mavjud. Bunda asosiy muammo oila huquqining subyektlari bo‘lgan jismoniy shaxslar fuqarosi bo‘lgan mamlakatlardagi oila huquqi bo‘yicha tartiblarning bir-biriga mos kelmasligida namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, bugungi kunda butun dunyoda migratsiyaning global to‘lqini kuzatilmoqda, turli davlatlar fuqarolari o‘zaro oilaviy munosabatlarga kirishmoqda. Bu esa oilaviy-huquqiy munosabatlar va fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Frenyo Edit. Transnational Families: The Right to Family Life In The Age Of Global Migration. Diss. – Georgia, 2020. – P. 43.
2. Bryceson D., Vuorela U. (ed.). The transnational family: New European frontiers and global networks. – Routledge, 2023.
3. “Около 8,5 тыс. браков с иностранцами зарегистрировали ЗАГСы Москвы в 2021 году” - <https://tass.ru/obschestvo/10989827> 2021.10.03.
4. Ивашкина Ю. Ю. Актуальные вопросы семей нойполитики в отношении молодых семеймигрантов в Санкт-Петербурге //Власть. – 2011. №. 12.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 30.04.1998. <https://lex.uz/docs/104720>.
6. “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 387-sonli qarori. 14.11.2016 – [https:// lex.uz/docs/-3064981](https://lex.uz/docs/-3064981)